



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



"MATERIALSHUNOSLIK VA KONSTRUKSION MATERIALLAR"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5112100 – mehnat ta'limi

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kash-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslibiy birlashmalar faoliyatini Muvosiflashtiruvchi Kengashning 2018-yil
“18” 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil
“18” 08 dagi 2014-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

J.E.Pardaboyev

– Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

G'.Abduqodirov

– Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Muslimov N.A.

– TDPU xuzuridagi PKQT va UMO tarmoq markazi direktori, p.f. d.prof.

Nurumbetova U.

– TVXTXQT va MO instituti katta o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslibiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 21 06 dagi “11”-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliv kasbiy ta'limdagi o'rni

Mazkur o'quv dasturi oliv pedagogika oliv o'quv yurtlarining kasb ta'limi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, xalq xo'jaligining hamma sohalarida ishlatalidigan materiallar to'g'risida ma'lumot berishni ko'zda tutmoqda. Shuningdek, materialarning tuzilishi, hossalari, qotishmalar nazariysi, holat diogrammalari, choyan va po'latlarning turlari, rangli metallar va ularning qotishmalar, elektrotexnika materiallar, nometal materiallar va ularning ishlatalishi, termik ishlov berishing texnologik va nazariy asoslari, kimyoviy termik ishlov berish metallarni zanglash va ularni oldini olish, xozirgi zamon konstruktsion materiallarni olish usullari, ularning xossalarini yaxshilash, hamda detallar tayyorlash yo'l-yo'riqlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Mazkur fanni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi darslari bilan bevosita aloqada bo'lib, materialarning turlari, ularning xossalarini, ta'biy qazilmalar, materialarning konstruktsiyasi, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan bir necha turdagи materialarning turlari xaqida o'quvchilarga bilim berilsa dastur mazmuniga mos keladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Ushbu fanning maqsadi – talabalarga metall va metalmas materialarning tuzilishi, ularning xossalarini, qotishmalar nazariyasi, qora va rangli metallar, metalmas materiallar, xamda metallarga termik va kimyoviy termik ishlov berish, metallarning zanglashini oldini olish, konstruktsion materiallarni ishlab chiqarish usullari, ularning xossalarini yaxshilash hamda detallar tayyorlash to'g'risida asosiy tushunchalar berish.

Ushbu fanning vazifasi – laboratoriya ishlarida qurilmalar va asbob uskunalaridan to'g'ri foydalanish, malaka talablariga asosan talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

– metal va metalmas materialarning turlari, tuzilishi va xossalari, metallar mustahkamligi va plastikligining fizik xossalari; qotishmalarning sovutilgandagi holati diogrammalari nazariyasi, qotishmalarni kristallah, temir uglerod qotishmalar, qotishmalarning qattiq xolatdagi struktura va faza o'zgarishlari, gazlamlarning turlari, tuzilishi va xossalari bo'yicha *bilimga*;

– metal va metalmas materialarning xossalari, ularning tuzilishi va klassifikatsiyasi, temir va uning qotishmalar, cho'yan va po'latlarni asosiy texnologik va ishlatalish xossalari bo'yicha klassifikatsiyalash; konstruktsion po'lat, cho'yan, asbobsozlikdagi po'lat va qotishmalar, zanglamas va issiqqa bardosh po'latlar va qotishmalarni, gazlamlarning xossalari, ularning tuzilishi va klassifikatsiyalariga oid *ko'nikma*;

– maxsus xossali po'latlar, termik ishlov berishning texnologik va nazariy asoslari; metallarning zanglashi va ularning oldini olish, rangli metall va ularning qotishmalar; elektrotexnik materiallar, metalmas konstruktsion materiallar va ularning ishlatalishdagi texnologik xossalari, qiyin eruvchan materiallar bo'yicha *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)
1-Modul. “Materialshunoslik va konstruktsion materiallar” fanining
predmeti va mazmuni.

1-mavzu. Kirish. Materialshunoslik va konstruktsion materiallar va KMT fanining predmeti va mazmuni. Bu fanning texnikaviy va ilmiy fanlar kasb va politexnik ta’lim bilan bog’liqligi.

“Materialshunoslik va konstruktsion materiallar” fanining predmeti ,maqsadi va vazifasi. O’zbekiston davlatimizning xalq xo’jaligini rivojlanтирish to’g’risidagi davlat rejalariда yangi konstruktsion materiallarini ishlab chiqarish, mavjud usullarni takomillashtirish uchun belgilangan tadbirlar. «Materialshunoslik va konstruktsion materiallar» fanining texnikaviy va ilmiy fanlar, mexnat va politexnik ta’lim bilan bog’liqligi.

2-mavzu. Metallarning ichki tuzilishi.

Kristall panjaraning turlari. Materiallarning polimor va allotropiya xususiyatlari. Haqiqiy kristallarning ichki tuzilishi. Kristall panjaradagi nuqsonlar. Nuqtali, chiziqli va sirtqi nuqsonlar.

3-mavzu. Metallar strukturasi. Kristallanish jarayonining mexanizmi va kinetikasi. Asosiy tushunchalar. Plastik va elastik deformatsiya. Birlamchi, yig’uvchi va ikkilamchi qayta kristallanish.

2-Modul. Qotishmalar nazariyasining asoslari.

4-mavzu. Qotishma. Mexanik aralashma, kimyoviy birikma qattiq eritma.

Qotishmalar nazariyasining asoslari. Qotishmalar. Qotishmalarning tuzilishi: qattiq eritma, kimyoviy birikma, mexanik aralashma. Metall va qotishmalarning fizik, kimyoviy, mexanik, elektrik, magnit, optik, issiq-fizikaviy va texnologik xossalalar. Mustahkamlik, qattiqlik, zarbiy qovushqoqlik, ishqalanib yeyilishga qarshilik. Mexanik xossalarni aniqlash usullari.

5-mavzu. Temir-sementli xolat diogrammasi.

Temir uglerodli qotishmalar. Temir - tsementit holat diagrammasi. Temir uglerodli konstruktsion qotishmalarning turlari va ishlatalishi.

**6-mavzu. Temir uglerodli va po'latlarning turlari, ishlatilishi.
Ligerlangan po'latlar**

Legirlangan konstruktsion va asbobsozlik po'latlar. Maxsus xossali po'latlar va ularning xossalariiga legirlovchi elementlarning ta'siri. Choyan. Oq va kulrang choyan. Yuqori mustaxkamlikka ega bo'lgan choyanlar. Bolg'alanuvchan choyanlar. Maxsus legirlangan choyanlar.

7-mavzu. Rangli metallar va ularning qotishmalari. Alyuminiy va mis qotishmalari.

Rangli metallar. Rangli metall qotishmalarining turlari. Mis va uning qotishmalari; alyuminiy va qotishmalar (alyuminiy asosli, magniyli, titanli); nikel va kiyin eruvchi metall asosli qotishmalar. Ularning tuzilishi xossasi va ishlatilishi. Antifriktsion qotishmalar. Kompozitsion materiallar.

4-Modul . Kukunli materiallar.

**8-mavzu. Kukunli meteriallar va ularning strukturalari.
Mineralokeramik materiallar va g'ovakli materiallar.**

Kukunli materiallar. Kukunli materiallar strukturasi va xossalari. Qattiq qotishmalarning strukturasi, xossalari, markalari va ularning ishlatilishi. Mineralokeramik materiallar. Otashbardosh metallokeramik materiallar. G'ovakli materiallar. Elektrotexnikaviy va antifriktsion kukunli materiallar.

5-Modul . Metall va qotishmalarga termik va kimyoviy-termik ishlov berish.

9- mavzu. Metall va qotishmalarga termik va kimyoviy-termik ishlov berish.

Po'latni qizdirish jarayonidagi ichki struktura o'zgarishlari. Po'latni termik ishlash texnologiyasi. Po'latni yumshatish, normallash, toplash. Yumshatish, turlari. Po'latni normallash. Po'latni toplash, toplash usullari. Toblanuvchanlik va toblanish chuqurligi. Bo'shatish va uning turlari. Po'latlarni kimyoviy-termik ishlash. Po'latni sementsiyalash. Po'latni azotlash. Azotlashni qo'llash joylari. Po'latni sianlash. Diffuzion metallash. Termomexanik ishlov berish.

6-Modul. Metallarning korroziyalanishi

10- mavzu. Metall korroziyasi va unga qarshi kurash. Korroziya turlari va mexanizmi. Korroziyani oldini olish metodlari

Korroziya turlari va mexanizmi. Metall korroziyasi va uning belgilari. Metall korroziyasi va unga qarshi kurash. Korroziyani oldini olish metodlari: legirlash, metall, metalmas materiallar bilan qoplash, protektorlar yordamida korroziyadan saqlash.

7-Modul Metallmas materiallar.

11- mavzu. Metallmas materiallar. Yog'och materiallar. Polimer materiallar xossalari, ishlatalishi.

Metallmas materiallar va ularning turlari. Yog'och materiallar. Yog'och materialarning fizik, mexanik xossalari. Yog'ochlardagi nuqsonlar. Yog'och materialarning turlari (taxtalar, fanerlar, to'sin va presslangan yog'och maxsulotlari) va ularning ishlatalishi. Yog'och materialarga ishlov berish usullari. Yog'och materiallardan tayyorlangan mahsulotlarni pardozlash.

Polimer materiallar xossalari, ishlatalishi. Plastik massalar tarkibi, tuzilishi va ishlatalishi. Termoreaktiv va termoplastik massalar. Plastmassalardan maxsulot olish texnologiyasi.

12- mavzu. Rezina materiallar. Rezina turlari, tarkibi xossasi va ishlatalishi. Shisha materiallari. Shishaning tuzilishi, tarkibi, xossalari. Laklovchi va boyash materiallar.

Rezina materiallar. Rezina turlari, tarkibi, xossasi va ishlatalishi. Rezinadan detallar olish texnologiyasi. Elimlovchi materiallar. Elimlovchi materialarning tarkibi, ularning klassifikatsiyasi va ishlatalishi. Laklovchi va boyovchi materiallar. Laklovchi va boyash materiallarining klassifikatsiyasi, ishlatalishi va ularni qullah metodlari. Shisha materiallar. Shishaning tuzilishi, tarkibi, xossalari. Shisha olish uchun xomashyo. Shisha pishirish texnologiyasi. Shishalardan maxsulot olish. Shishalarning klassifikatsiyasi va ishlatalishi. Shishadan tayyorlangan maxsulotlarga mexanik va termik ishlov berish. Aqli materiallar haqida umumiyl tushunchalar. Nanotexnologiyalar va ularning zamonaviy ishlab chiqarishdagi ahamiyati to'g'risida asosiy ma'lumotlar.

8-Modul. Metallurgiya jarayoni

13- mavzu. Metallurgiya jarayoni to'g'risida umumiyl tushunchalar. Domna pechingining tuzilishi. Domna pechingining mahsuloti

Metallurgiya to'g'risida tushunchalar. Metallurgiyada qo'llaniladigan xomashyo va yordamchi materiallar. Rudalarning klassifikatsiyasi: sulfidli, okislangan va tabiiy. Flyuslar, ularning qo'llanishi. Metallurgiyada qo'llanuvchi yoqilg'i turlari va ularga qoyiladigan talablar. Otashbardosh materiallar, ularning klassifikatsiyasi va ishlatalishi. Bu materialarga qoyiladigan talablar. Temir — uglerod qotishmalarini olish. Choyan olish uchun ishlataladigan man'ba materiallar, ularni eritishtga tayyorlash. Boyitish jarayonining fizikaviy moxiyati. Domna jarayoni. Domna pechingining tuzilishi. Domna tseinxining strukturasi. Domna pechingining mahsuloti. Domna jarayonini jadallashtirish va avtomatlashtirish. Rudadan temirni qaytarish.

14- mavzu. Po'lat olishning zamonaviy usullari, kislorodli – konvertor, marten va elektropechlar

Po'lat olishning zamonaviy usullari, kislorodli - konvertor, marten va elektropechlar. Po'lat eritish jarayoni. Po'lat eritishda asosiy va achitish jarayonlar. Po'lat ishlab chiqarish. Turli usullarda po'lat olish usullarini texnik tejamkorligini solishtirish. Po'lat olish jarayonini jadallashtirish. Po'latlarni quyish. Quyish turlari va ularni xarakteristikasi. Qaynayotgan, tinchlangan va yarim tingan, tingan po'lat quymalarining tuzilishi. Yuqori sifatlari po'lat olish usullari: yoyli elektropechlarda, vakuumli qayta quyish, elektroshlakli va xokazo. Mis, alyuminiy va boshqa rangli metallar ishlab chiqarish. Rangli metallarni quyish jarayonini takomillashtirish. Elektromagnit kristalizatorlar. Yuqori sifatlari metallar olish.

9-Modul. Elektr tokini o'tkazuvchi materiallar.

15-mavzu. Dielektriklar, yarim o'tkazgichlar va o'tkazgichlar.

Elektr to'kini o'tkazuvchi materiallar. Metallardan yasalgan o'tkazgichlar. O'ta o'tkazgichlar. Yuqori elektroqarshilikka ega qotishmalar. Kontakt materiallar. Uzuvchi kontaktlar uchun materiallar. Diomagnitlar, paromagnitlar, ferromagnitlar. Magnito-yumshoq va magnito-qattiq materiallar. Ularning nazariy asosları. Metall va nometallarning optik xossalari. Elektro-magnit nurlanish. Nur sinishi, rang. Lyuminassitsiya, lazerlar.

10-Modul Kompozitsion materiallar

16-mavzu. Kompozitsion materiallar.

Kompozitsion materiallar haqida umumiylar ma'lumotlar. Ularni olish, tarkibi, tuzilishi, xossasi va ishlatilish sohasi.

11-Modul. Metallarni payvandlash va kavsharlash.

17-mavzu. Metallarni payvandlash. Payvandlash turlari va birikmalari

Payvandlash turlari va birikmalari. Vatanimiz olimlarining payvanddash jarayonini rivojlanтирish va takomillashtirishdagi roli. Payvandlangan birikmalar va choklarning turlari. Metallarni payvandlash. Payvandlash turlari va birikmalari Eritish usuli va payvandlash. Bosim ostida payvandlash. Gaz yordamida payvandlash. Payvand sirti va payvandlangan birikmalarning sifatini tekshirish. Metallarni kavsharlash. Qattiq va yumshoq kavsharlovchi materiallar, flyuslarning klassifikatsiyasi. Kavsharlash texnologiyasi.

12-Modul. Metallarni kesib ishlash texnologiyasi

18- mavzu. Metallarni mehanikaviy ishlash to‘g‘risida ma’lumot. Metallarni mexanikaviy kesib ishlash turlari. Asosiy metall qirquvchi stanoklar va asboblar.

Materiallarni mexanikaviy ishlash to‘g‘risida ma’lumot. Materiallarni mexanikaviy kesib ishlash turlari. Mexanik kesib ishlov berishda qo‘llaniladigan asboblar. Kesuvchi asboblarning geometriyasi. Asosiy metall qirquvchi staniklar (tokarlik, parmalovchi, frezalash, jilvirlash) ularning ishlatalishi. Kesish rejimining elementlari: kesish chuqurligi, surish kattaligi va kesish tezlik.

IV. Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish boyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Rezina, shisha va kuriish materiallarining turlarini o‘rganish.
2. Rangli metallarning ichki tuzilishini mikroskopda o‘rganish.
3. Metallarni termik ishlashni o‘rganish.
4. Metallarni kimyoviy — termik ishlashni urganish.
5. Choyan va po‘lat ishlab chikarish metallurgiyasini o‘rganish
6. Qora va rangli metallarni quyish usullarini, zagatovkalarni olish usullarini o‘rganish (ekskursiya).
7. Metallarni bosim bilan ishlash turlari (ekskursiya).
8. Detallarni elektr usulida payvandlashni o‘rganish.
9. Metallarni gaz yordamida payvandlashni o‘rganish.
10. Tokarlik keskichining elementlari, geometriyasi va ularning turlari o‘rganish.
11. Tokarlik stanogining tuzilishi va ishlash printsip.
12. Parmalash, frezerlash stanoklarining tuzilishi va ishlashini printsipi, ularda bajarilaligan ishlar.

Amaliy mashg‘ulotlarida fanning asosiy ma’ruza mavzulari boyicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy ishlarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llannmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, o‘quv materiallaridan foydalanish, talabalar bilimlarini oshirish masalalarini yechish, mavzular boyicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

V. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish boyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg‘ulotlariga tavsiya etiladigan mavzular

1. Metallarning kristallanish jarayonini o‘rganish.
2. Metallarning kattikligini Brinel usulida aniqlash.
3. Metallarning qattiqligini Rokvell usulila aniqlash.
4. Metallarning zarbiy qovushqoqligini o‘chash.
5. Temir uglerod xolat diogrammasini o‘rganish.

- Metallarning ichki tuzilishini «Makroanaliz» usulida o‘rganish.
- Metallarning ichki tuzilishini o‘rganish uchun «Mikroshlif» tayyorlash va metallografik mikroskop tuzilishini va ishlatalishni o‘rganish.
- Po‘latlarning ichki tuzilishini mikroskop yordamida o‘rganish (mikroanaliz).
- Choyanlarning tuzilishini mikroskop yordamida o‘rganish.
- Plastmassalar va ularning tuzilishini o‘rganish.

Laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar metallarning kristallanish jarayonini, metallarning kattikligini Brinel va Rokvell usullarida aniqlashni, metallarning zarbiy qovushqoqligini o‘lchashni, temir uglerod xolat diogrammasini, metallarning ichki tuzilishini «Makroanaliz» usulida va «Mikroshlif» tayyorlash va metallografik mikroskop tuzilishini va ishlatalishni o‘rganish, metallarni termik ishslashni, choyan va po‘lat ishlab chikarish metallurgiyasini, detallarni elektr va gaz yordamida payvandlashni, tokarlik keskichining elementlari va ularning turlari, tokarlik keskichi geometriyasini, tokarlik stanogining tuzilishi va ishslash printsiplarini o‘rganadilar.

VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar boyicha ma’ruzalar qismlarini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- maxsus adabiyotlar boyicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuhur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalilanidigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distsantsion) ta’lim.

Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o‘rganadigan ma’ruza va laboratoriya mashg‘uloti mavzularidan iborat bo‘ladi. Mustaqil ta’lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, mavzularni tushunish qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishga, umumiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari:

- Metallarning allotropik shakl o‘zgarishlari
- Po‘latlarning xossalariiga C, Si, Mn, S va P elementlarning ta’siri
- Magniy qotishmalari, markalari va ishlatalish joylari.
- Po‘lat buyumlarning sirtqi yuzalarini metal va nometallar bilan toyintirish
- Plastmassalardan detallar tayyorlash usullari.
- Elimlash materiallari.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

1. I. Nosirov. Materialshunoslik.-T.: «O'zbekiston» 2002.
2. V.A.Mirboboyev. Konstruksion materiallar texnologiyasi.-T.: «O'qituvchi» 2004.
3. A.S.Iskandarov. Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblar va stanoklar.-T.: «Fan va texnologiya» 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.- Toshkent.: "O'zbekiston", 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi shart". O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. - Toshkent.: 2017. -104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. -486 b.
4. S.A.Rasulov, V.A.Gachev. Quymakorlik metallurgiyasi. – T.: «O'qituvchi» 2004.
5. K.V.Usmonov. Metall kesish asoslari.-T.: «O'qituvchi» 2004.
6. William F.Smith, Javad Hashemi Foundations of materials science and Engineering, 2013

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz
2. www.ziyonet.uz